

**BO'LAJAK O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI O'QITUVCHILARINING
KASBIY KOMPENSATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Zaripova Muxlisa Xamid qizi
Mardiyeva Umida Xoliqul qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI
Turkiy tillar fakulkteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini tashkil etishda pedagogika kompetensiyaning ahamiyati haqida fikrlar mavjud. Shuningdek, maqolada o'qituvchining axborot xavfsizligi bilan ishlashish, individual o'quv shakllarini qo'llash doirasida tavsiyalar ham o'rin olgan. Zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanishda o'zbek tili sohasidagi muammoli vaziyatlarga nisbatan yechim berish, an'anaviy va noanaviy dars uslublaridan qo'llanish haqida qarashlar ham mavjud. O'quvchi-yoshlarda jamoaviy yoki individual bilim shakllarini amalga oshirishda elektron darslik va dars ishlanmalarning ahamiyati xususida nazariy qarashlar ham o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: An'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, individual yondashuv, eviristik o'qitish usullari, ilmiy bashorat, elektron darslik.

Bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish usullaridan biri eviristik o'qitish usullarini foydalanishdir. Shu bilan birga o'qituvchilarning erkin fikrlashishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi va metodlar yordamida muammolarni yechishga qaratilgan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik, o'qituvchidan muntazam harakatni va bilim berish shakllarida o'z ustida ishlashni talab etadi. Shakllangan eviristik faoliyat natijalarini baholashga ko'ra ular bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin. Ular:

a) bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy tarzda o'z ustida ishlashlarini, individual rivojlanishini ta'minlash;

b) pedagogik faoliyati shakllantirishda asosiy fanlarning bo'lajak o'qituvchilarning erishadigan yutuqlari yo'lidagi ahamiyati va tajriba maktablarida amaliy o'quv modullarini o'zlashtirish;

v) turli xil uslubiy qo'llanmalardan foydalangan holda dars jarayonlarni amalga oshirishda pedagogik imkoniyatlardan foydalanish.

Natijada yuqorida keltirilganimizdek kuzatishlarning natijalariga ko'ra pedagogika fanlarni tashkil etish va o'zbek tilida o'qitish darsliklarning muntazam ravishda maxsus talablarga moslashtirish yaxshi samaradorlikni tashkil etadi. Ularni esa o'quvchilarga o'rgatish texnologiyasi va usullari ham bir-biridan farq qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar har qanday vaziyatiga tayyor bo'la oladigan va o'quvchilariga

tasavvur qilish orqali individuallik izlanish, jamoaviylik tarzda ishlashish yoʻlida bilim berish shakllarini yoʻlga qoʻya oladi. Bu borada kasbiy kompetensiyaning kasbga yoʻnaltiruvchi asosiy koʻnikmalardan biri sifatida yuqori oliy taʼlim muassasalarida qoʻllanilish darajasi ham ortib bormoqda. “Kompetentsiya - bu har qanday fan sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur boʻlgan bilim va tajribalar yigʻindisidir. Pedagogikada oʻqituvchining kasbiy kompetensiyasi tarbiya, oʻqitish va taʼlim faoliyati jarayonida talabalar bilan birgalikda ularning taʼlim samaradorligini oshirish uchun muammolarni mohirona hal qilish qobiliyatidan iborat. Kompetentsiya berilgan vazifani bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini taʼminlovchi, olingan koʻnikma, bilim va tajribaga asoslanadi. Masalan, tarjimonning kundalik ishida foydalanadigan tilni bilish darajasi”.[1]

Boʻlajak oʻzbek tili va adabiyoti oʻqituvchilarining kasbiy faoliyatini tashkil etishga qaratilgan amaliy tajribalardan koʻzlangan maqsad ularning

- axborotlar xavfsizligi bilan ishlashish;
- individual oʻqituv shakllarini qoʻllash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- pedagogik yoʻnaltiruvchilik qobiliyatining shakllantirilishi;
- oʻzbek tili sohasidagi muammoli vaziyatlarga nisbatan munosabat bildira olish;
- anʼanaviy va noanʼanaviy dars stillarining targʻibotchisi boʻlish;
- ilmiy bashorat va ilmiy kashfiyotlarning taʼlim tizimiga aloqadorligini

tekshirish;

- oʻzlashtirishi past boʻlgan oʻquvchilarga qoʻshimcha dars shakllarining noanʼanaviy uslublarda tashkil etish;

- oʻquvchi-yoshlarda individual va jamoaviy tarzda oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish;

- elektron dars ishlanmalari va elektronlashtirilgan dars stillarining targʻib qilinishi;

- oʻquvchilar bilan darsdan tashqari oʻquv mashgʻulotlarining oʻquv laboratoriyalarida tashkil etish;

- kasbga doir yangiliklar va qayta malaka oshirish jarayonlarida mutanosib faollik koʻrsatish va boshqalar.

Boʻlajak oʻzbek tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda kompetensiyalarning oʻrni ham kattadir. Shu bilan birga ularni kasbga doir turli xil muammoli vaziyatlar bilan tanishtirishda tajriba maktablari katta rol oʻynaydi. Bunda eviristik uslublarining kreativ tafakkur bilan amalga oshirilishi mashgʻulotlarda esa pedagogika fanlarning turli xil vaziyatlar muammolarga nisbatan beriladigan yechimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik yechimlarning ahamiyatini taʼminlovchi natijalarga qarab bilim shakli baholanadi. Qabul qilingan pedagogik yechimlar oʻqituvchining tarixiy tajribasi yoki bugungi kundagi zamonaviy taʼlim

texnologiyalardan foydalanishiga ko'ra baholanadi. Yopshiriqlarning yangi amaliy usullarda topshirib qo'yilishi yoki topshiriqlarni bajarish davomida muntazam belgilangan uslublar o'quv harakatlarining maxsus chegara va tartib bilan belgilarni yuzaga chiqaradi. Bu kabi fikrlarning isbotida pedagogik faoliyatni shakllantirishda ayni o'zbek tili va adabiyoti ta'lim jarayonida o'ziga xoslikni tashkil etadi. "Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

1. Qobiliyatni aniqlash;
2. Tarbiyalash va shakllantirish;
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)
4. Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)
5. Rahbarlik cho'qqisi.

Kompetensiya tushunchasi haqida ko'p fikrlarini bildirganlar ichida o'zbek pedagog olimlari ham bor. Bularda B. Xodjayev, A. Musurmanova, N. Saidahmedov, A. Muslimov, E. Yuzlikaeva, R.D. Risqulova, A.E. Kenjaboyevlar ilmiy tadqiqot ishlarida va amaliy metodik maqolalarida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish uzluksiz ta'lim muassasi o'qituvchilarining kompetensiyasi va unga qo'yiladigan didaktik talablar ushbu atamasining mohiyatini, uning tarkibiy qismlari haqida o'z fikrlarini bayon qilgan".[2]

O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi esa shaxsni pedagog ravishda rivojlantirishdan oldin individual fikrlaydigan kishi o'laroq pedagogika sohasini yaxshi tushunishi lozim. O'zbek tili adabiyoti o'qituvchilariga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri ijobiy nutq shakllarini shakllantirishdir. O'quvchi-yoshlarga bilim shakllarini turli xil shakllarda yetkazib berishga harakat qilinadi. Bunday pedagogik reflekslarning ahamiyati kattadir. Metodlarning qo'llanishi o'qituvchining xatti-harakatlari va reflekslarga ham bog'liqdir. 'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri o'quvchi bilan muloqotga kirishar ekan, ularga nisbatan to'g'ri va munosabatda bo'lmasa pedagogik reflekslarning buzilishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda dars jarayonida qo'llash uchun zamonaviy yondashuvlarning uyg'unlashishi xalqaro loyihalar va texnologiyalaridan foydalanishning ham samaradorligi katta. Bugungi kunda o'qituvchilarning an'anaviy dars tizimi va noan'anaviy dars tizimlarini tahlil etishda aniq dars uslublarining o'ziga xosligi va ularga bo'layotgan talabni oshib borayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu bilan birga jamiyat hayotidagi amaliy vazifalarning bajarilishi evristik muammolarning ham yuzaga kelishini baholaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyalari, muammoni ta'lim texnologiyalari, shu bilan birgalikda axborot-kommunikatsiya vositalari bilan shug'ullanishi ham katta rol o'ynaydi.

"Mashg'ulotlarda esa pedagogning evristik izlanuvchanligi hamda pedagogik yechimlarni ta'minlashda uning o'rni va ahamiyati, muammoli pedagogik vaziyatlar, pedagogik echimlar, pedagogik echimlarning samaradorligini ta'minlovchi natijalar,

qabul qilingan pedagogik echimlarni asoslashga oid ilmiy yondashuvlar, ushbu yo‘nalishdagi xalqaro hamda tarixiy tajribalar, pedagogik vaziyatlar haqida qarorlar qabul qilishning turli bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyati, shuningdek topshiriqlar qo‘yish, topshiriqlarni bajarish oldidan amalga oshiriladigan o‘quv harakatlari, echimlarni chegaralash shakllari, echimlarni shakllantirish va uni baholash, echimni tanlash, echimlarni nazorat qilish va baholashni tashkil etish, pedagog faoliyatida evristik hamda mantiqiy izlanishlarning o‘zaro munosabati haqida aniq bilimlar, innovatsion yondashuvlar, xalqaro hamda tarixiy tajribalar taqdim etiladi”. [3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo‘riyev A. A. “O‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish” maqola. “Экономика и социум” 2022
2. Saidova Parvina Mirzo qizi, Abduhalimova Mahbuba Abdumalik qizi. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari. Journal of universal science research.
3. Qodirov G‘ayrat Ortiqboyevich. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda evristik o‘qitish usullaridan foydalanish” maqola. International scientific-practical conference “strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions” - 2023